




IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 321 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellash (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar	75
Raximov Shoxrux Furqatovich	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari	78
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari.....	82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
The role of global value chains in international trade competition.....	85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития.....	88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи	



Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches.....	90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Qudratov Inomjon Nemat ugli	
Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi.....	93
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish.....	97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Chakana savdo va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish	102
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Abdullayev Firdavs Sanjar o'g'li, Ravshanova Muxtarama	
Zamonaviy shahar massivlarida xizmat ko'rsatish va boshqarishda "Aqlli shahar" konsepsiyasi	105
Ismailov Najmiddin Ilxamovich	
Germaniyaning ta'minot zanjirlarini boshqarish tajribasidan foydalanishni afzalliklari.....	108
Nuriddinov G'ulomiddin Ziyovuddin o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirida CPFR texnologiyasi foydalanishni afzalliklari.....	111
Komilov Muhammad Yusuf Sardorbek o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Ta'minot zanjirlarini qo'llashda jahon tajribasi.....	115
Karimov Amirxon Anvarovich, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Sug'urtada investisiya faoliyatini tashkil etishni huquqiy asoslari	118
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
Yurtimizda amaldagi budjetlararo munosabatlar tartibi, hisobi hamda uning afzalliklari	122
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
Aholini ijtimoiy himoya qilish institutlari shakllanishining xorij tajribalari	127
Bobonov N.H.	
Способ организации продуктивной работы преподавателя и его влияние на результативность	131
Гулнора Казимова	
Literature is a reflection of the soul and culture of humanity	136
Sayidova Sayyora Yorikulovna	
Turizm infratuzilmasida transport xizmatlarini integratsiyalash: muammo va yechimlar	140
Vakilov Ruslan Tillabayevich	
Ekoturizm va madaniy meros obyektlariga tashrifni tartibga soluvchi huquqiy normalar	142
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	145
Umida Kakhramonova Gayratovna	
Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	149
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida mulkni qayta baholash va unga yetkazilgan moddiy zararni aniqlash.....	153
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
Shahar aglomeratsiyasining sifatini ekologik va geologik mezonlar asosida kompleks baholash.....	155
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Sanoatda korxonalarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash	160
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy tengsizliklarni kamaytirish usullari.....	165
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Tog' yon bag'rida joylashgan kon uymlarini ochiq usulda qazib olish xususiyatlari.....	174
I.T. Mislibayev, M.Sh. Ochilova	
Milliy iqtisodiyotda turizmning o'rni va rivojlanish imkoniyatlari.....	176
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna	
China insurance market experience	178
Jumaboyev Akmal Sheraliyevich	



Tijorat banklarida moliyaviy resurslarning shakllanish manbalari.....	181
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Bank tizimida buxgalteriya hisobotlarida axborot texnologiyalarining roli va rivoji.....	185
Sodiqov Sanjar Saydullo o'g'li	
Samarali loyiha risklarini boshqarish: nazariya va amaliyot.....	189
Nosirova Gulira'no Abdulaziz qizi	
XXI-asrda Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti: sohaviy islohotlar, yutuqlar va muammolar tahlili.....	192
D.E.Qarshiyev	
Boshqaruv hisobining zamonaviy konsepsiyalarini joriy etish xo'jalik yurituvchi subyektlarda natijadorlikka erishishning muhim omilidir	195
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Eksportga chiqariladigan mahsulotlar uchun zamonaviy qadoqlashning ahamiyati va tendensiyalari	201
Xidirov Shohrux Bobur o'g'li	
Усовершенствование подходов к управлению проблемными кредитами в коммерческих банках узбекистана	205
Улмасой Хусан кизи Ахмедова	
Sug'urtada investitsiya faoliyatini obyekt va predmeti	208
D.E.Qarshiev	
O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning tadbirkorlik sohasida istiqbollari.....	211
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Sug'urtada anderryayting xizmatini xorij tajribasidan foydalanish	213
D.E. Qarshiev	
Важность проекта «умный город» в узбекистане	216
Акбаржон Иминов	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	218
Акбарjon Iminov	
Moliyaviy faoliyat natijalari hisobini takomillashtirishda tahlilning o'rni.....	220
Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li	
Temir yo'l va intermodal transport tizimining rivojlanishi: investitsiyalar, xarajatlar va samaradorlik tahlili	226
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ahamiyati.....	230
S.J. Yangiboev	
Korporativ boshqaruv va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik: davlat ishtirokidagi korxonalar misolida.....	234
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
“Sanoat korxonalarida zamonaviy loyiha menejerining asosiy kompetensiyalar modelini ishlab chiqish”	238
Axmedov Daniyar Sabirovich, Valiyev Shamsiddin Eshpulatovich	
Turizmdagi shartnoma munosabatlari: turoperatorlar, turagentlar, turistik xizmatlar iste'molchilari	241
Ergasheva Iroda Ibrohim qizi	
“Разработка модели ключевых компетенций современного менеджера проекта в промышленных предприятиях”	243
Ахмедов Данияр Сабирович, Научный руководитель	
Xorijiy tajriba asosida o'zbekistonda oliy ta'lim akademik boshqaruvini takomillashtirish	249
Muxamedova Moxigul Xusanovna	
The role of international institutions in accelerating green finance	253
Qudratov Inomjon Nemat o'g'li	
Barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida yashil innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish	257
Xudayberdieva Dilnoza Egamberdiyevna	
Indicators and criteria of women's sustainable employment in the context of economic growth.....	262
Kholiyorova Shokhista Kahramon kizi	
Qishloq xo'jaligi sohasida “Salam” maxsus savdo shartnomalaridan foydalanish istiqbollari.....	267
Xoliyov Xomid	



Davlat xaridlarida kichik biznesning ortib borishi va uning umumiy tizimdagi o'rne Majidov Nizom Baxramovich	269
Davlat qarzlarini qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish va tashqi xatarlardan himoyalash yo'nalishlari Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	273
Xalqaro moliya institutlaridan investitsiyalarni jalb qilishning ahamiti Tolibov Shoxrux Muminovich	277
O'zbekiston respublikasining soliq salohiyati: 2024-yilda viloyatlar va Qoraqalpog'iston..... Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	280
Oliy ta'lim muassasalarida investitsiya muhitini boshqarishning institutsional mexanizmlari Otaxanov Rasulbek Marks o'g'li	283
Автоматизированное управление корпоративными расходами: стратегический подход и экономическая эффективность..... Кахоров Абдумалик Рахматулло угли	286
Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана..... Салим Дониёров	289
Raqamli transformatsiyaning mohiyati va bank sohasidagi ahamiyati..... Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	294
Деятельность международных финансово-кредитных организаций и перспективы развития сотрудничества с Республикой Узбекистан Холикова Зарнигор Камолиддин кизи	299
Budjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarida davlat xarajatlarini moliyalashtirish tartibi va amal qilish holati..... Abdurasulov Sardor To'liqin o'g'li	302
Tijorat banklari tomonidan komplayens-nazorat tizimini rivojlantirish istiqbollari Rustamov Sunnatillo Rustamovich	307
Bank tizimi modernizatsiyasida innovatsion boshqaruv modellarining ahamiyati Hamroyev Xurshid Jalilovich	310
Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya..... Turapov Bahromjon Alisher o'g'li	314
O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga yo'naltirilgan davlatning siyosati, me'yoriy-huquqiy bazasi va iqtisodiy islohotlari Xasanov Jaxongir Jamshidovich	317



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN DAVLATNING SIYOSATI, ME'YORIY-HUQUQIY BAZASI VA IQTISODIY ISLOHOTLARI

Xasanov Jaxongir Jamshidovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

jonixasanovaag@mail.com

Annotatsiya: Yashirin iqtisodiyot nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlarda, balki rivojlangan davlatlar miqyosida ham dolzarb iqtisodiy muammoga aylanib, iqtisodiy tizimning barqaror faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishda davlat siyosatining samarali yo'naltirilishi, kompleks iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi hamda huquqiy-me'yoriy hujjatlar va qarorlarning ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash borasida so'nggi yillarda chora-tadbirlar tizimi izchil va jadallik bilan amalga oshirilmoqda, bu esa milliy iqtisodiyotning ochiqqligini ta'minlash hamda barqaror rivojlanish sur'atlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, soliq kodeksi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, iqtisodiy islohotlar, norasmiy faoliyat, iqtisodiy barqarorlik, davlat siyosati.

Abstract: The shadow economy has become a pressing economic problem not only in developing countries but also in developed states, exerting a negative impact on the stable functioning of economic systems and on processes of sustainable development. Addressing this issue requires the effective orientation of state policy, the implementation of comprehensive economic reforms, as well as the development of legal and regulatory frameworks and governmental decisions. In the Republic of Uzbekistan, in recent years, a system of measures to combat the shadow economy has been consistently and actively implemented, which contributes to ensuring the transparency of the national economy and enhancing the pace of sustainable development.

Key words: shadow economy; Tax Code; regulatory and legal acts; economic reforms; informal activity; economic stability; state policy.

Аннотация: Теневая экономика превратилась в актуальную экономическую проблему не только в развивающихся странах, но и в развитых государствах, оказывая негативное влияние на стабильное функционирование экономических систем и процессы устойчивого развития. Решение данной проблемы требует эффективной ориентации государственной политики, реализации комплексных экономических реформ, а также разработки правовых и нормативных актов и государственных решений. В Республике Узбекистан в последние годы система мер по противодействию теневой экономике осуществляется последовательно и динамично, что способствует обеспечению открытости национальной экономики и ускорению темпов устойчивого развития.

Ключевые слова: теневая экономика; Налоговый кодекс; нормативно-правовые акты; экономические реформы; неформальная деятельность; экономическая стабильность; государственная политика.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy xavfsizlikni mustahkamlash davlat siyosatining fundamental hamda strategik ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Biroq bu jarayonda mamlakat iqtisodiy tizimiga tahdid soluvchi omillar – xususan, yashirin iqtisodiyot jiddiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Yashirin iqtisodiy faoliyat soliq tushumlarining kamayishi, korrupsiya darajasining oshishi, rasmiy mehnat bozori va investitsiyaviy muhitga salbiy ta'siri orqali davlatning iqtisodiy asoslarini zaiflashtiradi.

Yashirin iqtisodiyot har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishiga va moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi omillardan biridir. U nafaqat soliq tushumlarini kamaytiradi, balki iqtisodiy islohotlar samaradorligini pasaytiradi, korrupsiya darajasini oshiradi hamda sog'lom raqobat muhitini buzadi. Shu sababli yashirin iqtisodiyot masalasi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.



Iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan davlatning iqtisodiy mustaqilligi, ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi tura olishi, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini bildiradi. Yashirin iqtisodiyot yuqoridagi jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Budjetni to'ldirish imkoniyatlari kamayadi, rasmiy sektorning ulushi qisqaradi, investitsiya muhiti yomonlashadi va fuqarolarning ijtimoiy himoyasi zaiflashadi.

Shu bois, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy asoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha qator qonunchilik hujjatlari, prezident farmonlari, soliq va jinoyat kodekslari, shuningdek, moliyaviy monitoring tizimlari orqali tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar imzolangan:

O'zbekiston Respublikasi 30.12.2019-yildagi "Soliq kodeksi" ¹yashirin iqtisodiyotga bevosita bog'liq va unga qarshi kurashishda asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. U yashirin faoliyatni aniqlash, rasmiylashtirish va soliqqa tortish orqali uni kamaytirishga xizmat qiladi. Yashirin iqtisodiyotning asosiy ko'rinishlaridan biri bu soliq to'lamaslik yoki daromadni yashirishdir. Soliq kodeksi quyidagi holatlarni soliq huquqbuzarligi sifatida ko'radi:

- daromadni ataylab kamaytirish yoki yashirish;
- xarajatlarni asossiz ko'rsatish;
- soxta hisobotlar topshirish;
- norasmiy ishchi kuchidan foydalanish.

Bu kabi holatlar yashirin iqtisodiy faoliyatga kiradi va yashirin iqtisodiy faoliyat hajmining oshishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun soliq kodeksi yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirish va mamlakatdagi to'g'ri va qonuniy ishbilarmon tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash maqsadida hamda mamlakatdagi bozor raqobatbardoshligini ta'minlash uchun yuqorida keltirilgan iqtisodiy jinoyatlarni ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortib bozor iqtisodiyoti tartibga solish soladi.²

2020-yildan amaliyotga joriy etilgan yangi "Soliq kodeksi" soliq idoralariga raqamli nazorat texnologiyalaridan foydalanish imkonini yaratdi. Xususan, onlayn nazorat-kassa apparatlari (ONKA), elektron hisob-fakturalar va avtomatlashtirilgan soliq hisobot tizimi orqali yashirin savdo hamda daromatlarni aniqlash samaradorligi oshdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida yashirin iqtisodiyotga aloqador noqonuniy tadbirkorlik, moliyaviy jinoyatlar hamda noqonuniy daromatlarni legallashtirish holatlari bo'yicha jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-sonli "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni imzolangan. Ushbu farmonida mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.³

Monopoliyalar va bozorni sun'iy boshqarish orqali yuzaga keladigan norasmiy narx shakllanishi, g'ayriqonuniy daromadlar va soxta kelishuvlar yashirin iqtisodiyotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi 5630-sonli "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁴ farmonida monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish, raqobat muhitini sog'lomlashtirish, va bu borada yangi tashkilot Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini kuchaytirish belgilangan. Bu islohotlar bozorni rasmiylashtirishga, shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023 yildagi 167-sonli "O'zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori . Qarorda davlat muassasalari va muhim axborot infratuzilmasi obyektlarining axborot tizimlarini himoya qilish, kiberhujumlarga qarshi kurashish, va axborot oqimini nazorat qilish mexanizmlari belgilangan. Bu orqali soxta yoki yashirin moliyaviy operatsiyalar, qora bozor faoliyatlari, yoki naqd pul muomalasi orqali yuritiladigan yashirin bitimlarni aniqlash imkoniyati oshadi.⁵

Qarorda raqamli infratuzilma ustidan markazlashtirilgan monitoring tizimi joriy etilishi ko'zda tutilgan. Bu yashirin iqtisodiy faoliyatlar (masalan, litsenziyasiz savdo, noqonuniy moliyaviy tranzaksiyalar) kabi holatlarni

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019 <https://lex.uz/> sayti.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019 <https://lex.uz/> sayti.

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-sonli farmoni

4 <https://lex.uz/> sayti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi PF-5630-sonli "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

5 <https://lex.uz/> sayti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.05.2023 yildagi PQ-167-son O'zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori



erta aniqlashga ko'maklashadi. Axborot xavfsizligi – iqtisodiy xavfsizlik tarkibiy qismi hisoblanadi. Kiberxavfsizlik ta'minlanmagan davlatda, turli noqonuniy iqtisodiy faoliyatlar (shu jumladan, korrupsiya, yashirin kelishuvlar, offshor operatsiyalar) elektron tizimlar orqali yashirin olib borilishi mumkin. Qaror shu tahdidlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy xavfsizlik va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimining bir bo'lagi sifatida ko'riladi. Davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashish tizimini kuchaytirish esa soliq, bojxona, bank, va moliyaviy monitoring organlari o'rtasida tezkor axborot almashinuviga asos bo'ladi, bu esa norasmiy iqtisodiy faoliyatlarni aniqlash va huquqiy chora ko'rish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yashirin iqtisodiyotni nafaqat iqtisodiy jinoyatlar orqali shakllanadi balki mamlakatkatning iqtisodiy va texnologik salohiyati kamligi, aholi orasidagi moliyaviy va huquqiy bilimlar yetishmasligi va undan tashqari 1-rasmda ko'rsatilgan holatlar natijasida yuzaga keladi.



1-Rasm. Yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy jinoyatlardan tashqari o'ziga xos xususiyatlari

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash jarayoni faqatgina jazolash choralarini qo'llash bilan cheklanmasdan, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Mazkur yondashuv doirasida samarali me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda raqamli iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish asosiy vositalar sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga qaratilgan kompleks davlat siyosati ishlab chiqilgan.

Mazkur siyosat doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini faqat jazolash orqali tartibga solish amaliyotidan voz kechilib, ularni norasmiy sektorga kirishga bo'lgan rag'batlarini kamaytirishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar qo'llanilmoqda. Xususan, tadbirkorlar, tijorat tashkilotlari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar va xususiy sektor vakillariga turli xil qulay shart-sharoitlar yaratish, soliq va bojxona imtiyozlarini berish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini joriy etish hamda boshqa preferensiyalar taqdim etish orqali yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga erishilmoqda.

Amaldagi davlat siyosati natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur kompleks yondashuv iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytirishda va yashirin iqtisodiyot ko'lamini sezilarli darajada kamaytirishda samarali omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun soliq tizimi isloh qilindi. Bu jarayonning maqsadi – rasmiy iqtisodiyotni kengaytirish, soliq to'lovchilarni rag'batlantirish va rasmiy tizimga qaram bo'lmagan iqtisodiy faoliyatni cheklashdan iborat. Soliq tizimining soddalashtirilishi va raqamlashtirilishi, sohada shaffoflikni ta'minlashga yordam berdi. Xususan, 2017 yildan boshlab davlat o'zining raqamli soliq tizimlarini joriy qila boshladi.⁶

O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiy bandlik masalasi uzoq yillar davomida yetarli darajada e'tibordan chetda qolib kelgan va tizimli ravishda ko'rib chiqilmagan. Biroq, 2017–2021 yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi bilan mehnat va bandlik sohasida chuqur institutsional islohotlar amalga oshirila boshlandi. 2019-yil yanvar oyidan boshlab jismoniy shaxslar daromadlariga yagona soliq stavkasi 12 foiz qilib belgilanib, ijtimoiy yuklama sezilarli darajada kamaytirildi. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy pensiya jamg'arma hisobvaraqlariga 0,1 foiz ajratma joriy etildi va ilgari fuqarolar daromadidan ushlab qolinib, Davlat

6 Rasulov, A. (2020). "Xufiyona iqtisodiyot va unga qarshi kurashishda soliq siyosatining roli". O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Boshqaruv.



budjetidan tashqari Pensiya jamg'armasiga yo'naltirilgan sug'urta badallari bekor qilindi. Mamlakatda soliq tizimi soddalashtirildi, bu esa norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish, rasmiy bandlikni kengaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, yagona ijtimoiy to'lov stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi, bu barcha yuridik shaxslar, shu jumladan mikrofirma, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan kam bo'lgan boshqa korxonalarga ham taalluqli bo'ldi.

2025-yil 11-avgustda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish" Mavzusida yig'ilishda Davlatimiz rahbari faqat nazoratni kuchaytirish bilan yashirin iqtisodiyotni jilovlab bo'lmasiligini, aholi va tadbirkorlarning soliq madaniyatini oshirib, to'g'ri ishlaganlarni rag'batlantirish yo'lidan borish kerakligini ta'kidladi va quyidagi ilg'or vazifalarni amalda joriy etish topshiriqlari berildi:

-Bunda eng samarali yo'l ilg'or texnologiyalar asosida yangicha yondashuvlarni joriy qilish ekani ta'kidlandi. Masalan, Toshkent shahrida jamoat transporti to'liq avtomatlashgan to'lovga o'tkazilgani natijasida, aslida, yo'lovchilar soni 30 foizga ko'p ekani ko'ringan. Yoki raqamlashtirilgan dehqon va buyum bozorlarida tushum 2-3 karra oshayapti.

Shunday tizimni qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, savdo va xizmatlar kabi yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori bo'lgan sohalarida ham joriy qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Litsenziya va ruxsatnoma berish jarayonlari hamda muddatlarini qayta ko'rib chiqib, inson omilini keskin qisqartirish va barcha qadamlarni to'liq raqamlashtirish vazifasi qo'yildi. Tadbirkorlar ko'p duch keladigan soliq, bank, bojxona, kommunal, sertifikatlash kabi sohalarida korrupsiyaga yo'l ochayotgan omillarga chek qo'yish zarurligi aytiladi.

Elektron to'lovlarni rivojlangani odamlarga keng qulaylik yaratmoqda. Bu yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda ham maqbul vosita. Buning uchun naqdsiz hisob-kitoblarni rag'batlantirish, to'lov tashkilotlarini ko'paytirish muhimligi qayd etildi.

Har bir soha bo'yicha alohida yondashuv qilib, tadbirkorlarga ochiq va qonuniy ishlashni manfaatli qilish vazifasi qo'yildi. Shundan kelib chiqib, soliq ma'murchiligini takomillashtirish va raqamlashtirish, biznesga qo'shimcha yengilliklar berish, mehnat munosabatlarini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi.⁷

XULOSA VA TAFLIFLAR

Yashirin iqtisodiyot zamonaviy milliy xo'jalik tizimlarining institutsional barqarorligiga hamda makroiqtisodiy rivojlanish dinamikasiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tizimli muammolardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur iqtisodiy hodisaning salbiy oqibatlarini minimallashtirish va uning ko'lamini qisqartirish davlatning huquqiy-me'yoriy bazasini mustahkamlash, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda iqtisodiy siyosatning kompleks mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash strategiyasi faqat repressiv choralarni qo'llash bilan chegaralanmasdan, balki soliq to'lovchilar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining rasmiy iqtisodiyotdagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy mexanizmlarni o'z ichiga olishi lozim. Mazkur yondashuv norasmiy sektorga kirishga bo'lgan iqtisodiy manfaatlarni pasaytirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning fiskal intizomini oshirish hamda iqtisodiyotni institutsional jihatdan modernizatsiya qilish jarayonlariga xizmat qiladi.

Natijada, davlatning tizimli va kompleks yondashuvi sharoitida yashirin iqtisodiyot hajmini izchil qisqartirish orqali iqtisodiy o'sishning barqarorligi, fiskal barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 30.12.2019 <https://lex.uz/> sayti
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020 yildagi PF-6098-sonli farmoni
3. <https://lex.uz/> sayti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2019 yildagi PF-5630-sonli "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
4. <https://lex.uz/> sayti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.05.2023 yildagi PQ-167-son O'zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori
5. Rasulov, A. (2020). "Xufyona iqtisodiyot va unga qarshi kurashishda soliq siyosatining roli". O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Boshqaruv.
6. Prezident tomonidan o'tkazilgan yig'ilish "yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish" <https://president.uz/oz/lists/view/8376>

⁷ Manba: Prezident tomonidan o'tkazilgan yig'ilish "yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish" <https://president.uz/oz/lists/view/8376>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
